

ASL FARZANDLAR – YURTNi SHARAFLAR



Joriy yil 9–15-yanvar kunlari Qozog'istonning Olmaota shahrida 15-Jautikov xalqaro fan olimpiadasi bo'lib o'tdi. Jahonning 18 davlatidan jami 540 nafar bilimli yoshlar ishtirok etgan ushbu nufuzli bellashuv matematika, informatika va fizika fanlari bo'yicha o'tkazilib, unda o'zbek yoshlari 1 oltin, 3 kumush va 7 bronza medalini qo'lga kiritdi.

Kuni kecha Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida g'oliblarni kutib olish marosimi bo'lib o'tdi. Unda o'quvchi yoshlar, ustozlar, ota-onalar hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

– 1-sinfda o'qib yurgan paytimdanoq matematikaga mehrim bo'lakcha. Shundan buyon bu fan bilan o'zinning yorqin kelajagimni tasavvur qilaman, – deydi tanlovning oltin medal sohibi, Buxoro davlat universiteti qoshidagi Qorako'l akademik litseyining 3-bosqich o'quvchisi Abbosbek Sayliyev. – Nasib bo'lsa, kelajakda dunyoning eng ilg'or oliy o'quv yurtlaridan birida o'qib, ona yurtim rivojiga munosib hissa qo'shaman.

USHBU SONDA:

**OLTINGA
TENG VAQTNI
qanday
o'tkazyapsiz?**

2-bet

**O'QUVCHI
FANLARNI YOMON
O'ZLASHTIRMOQDA
BUNGA sabab...**

3-bet

**GYOTE
NOMIDAGI
MAKTAB**

5-bet

Zakovat, ilm izla, yurmagin bekor,
Kezi kelsa nafi tegar bir kuni.

Aziz o'quvchilar, hech o'ylab ko'rganmisiz, osmonda parvoz qilayotgan temir qanotli samolyot, dengizda og'ir yuk bilan erkin suzib borayotgan mustahkam qayiq, tunda yaqin ko'makchimiz bo'lgan cho'g' lampali chiroqni kim ixtiro qilgan ekan-a? Qo'limizdagi zamonaviy uyali telefon, har kuni foydalanadiganimiz - kompyuter, radio, televizorni-chi?

OLQISHLANGAN IXTIRO



Ishonamanki, ko'pchiligingiz bu savollarning aksariyatiga bemaol javob bera olasiz. Ammo aytmoqchi bo'lganim shuki, yirik ixtiro egalari ham iqtidorini ro'yobga chiqarish uchun o'z vaqtida yetarli sharoit va imkoniyatga ega bo'lgani, ota-onasi, qolaversa, jonajon yurtining mehri va e'tiborini his qilgani uchun ham ana shunday olamshumul yangiliklarga qo'l ura olgan.

o'z qo'llari bilan yaratgan g'aroyib elektromashinalar, zimmasiga ko'p vazifa yuklanadigan dronlar, bir-biridan ajoyib robotlarni ko'rib, beixtiyor ularning tafakkuriga tasannolar aytdik.

Ta'kidlash joizki, «RoboCraft» maxsus kurslardan iborat bo'lib, bu yerda yosh iqtidor egalari malakali ustozlar qo'l ostida elektronika asoslari bo'yicha kerakli bilimga ega bo'lib, robotlarni yasash va yig'ish, ularning tashqi dizayni ustida ishlash, dasturlashni o'rganadi. E'tiborlisi, barcha mashg'ulotlar zamonaviy va ilg'or ta'lim metodlari asosida o'tiladi. Fursatdan foydalanib, markaz direktori Ma'sumxon Hakimovni suhbatga tortdik:



Kuni kecha «Barkamol avlod» respublika bolalar ekologiya va o'lkashunoslik markazida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov ixtirochi o'quvchilar yaratgan texnik ishlanmalari bilan yaqindan tanishdi. E'tiborlisi, namoyishga qo'yilgan ko'plab ijodiy ishlar vazirda juda katta taassurot qoldirdi.

Bugun mamlakatimizda tafakkuri keng, yangilikka intiluvchan, tashabbuskor yoshlarning iste'dodini qo'llab-quvvatlash, ularga g'amxo'rlik qilish, ilm cho'qqilarini zabt etishi uchun kerakli shart-sharoit yaratish borasida qator ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Quvonarlisi, «Barkamol avlod» respublika bolalar ekologiya va o'lkashunoslik markazida robot va dasturlarni ishlab chiqarishni o'rganish imkonini beruvchi «Robo-Craft» ixtisoslashtirilgan kurslarining ochilish marosimi doirasidagi tadbir ana shu ezgu maqsad yo'lida tashkil etildi. Namoyish davomida o'quvchilar

— O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi tomonidan xususiy investorlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan ushbu kurslar ixtirochi yoshlar iqtidorini ro'yobga chiqarish, ular yaratgan texnik ishlanmalarni zamon talablariga moslashtirish, eng asosiysi, Al Xorazmiy avlodlari yana jahon ilm-fan olamida munosib o'ringa ega bo'lishlari uchun tashkil etildi. Mashg'ulotlarning oson va qiziqarli o'tishi uchun markazimiz barcha zaruriy o'quv jihozlari bilan ta'minlandi.

«RoboCraft» ixtisoslashtirilgan kurslarining ochilish marosimida XTV vaziri iqtidorli o'quvchilarga ilmnning mashaqqatli yo'lida omad va zafarlar tilab, yaqin kelajakda ular orasidan dunyoni lol qoldiradigan ajoyib ixtirochilar yetishib chiqishiga ishonch bildirdi.

Sa'dullo TURSUNOV

KITOBGA HAVAS

Kuni kecha o'quvchilarim bilan birga Buxoro shahridagi Ibn Sino nomidagi viloyat Axborot-kutubxonasiga sayohat uyushtirdik.

Ziyo maskani xodimlaridan biri bizlarga kutubxonaning gazeta-jurnallar, internet, nodir asarlar, maktab o'quvchilari bo'limlari hamda o'quv zallari haqida atroflicha ma'lumotlar berib, bolalarni qiziqitirgan savollarga javob berdilar. O'z navbatida, o'quvchilar bu yerda kitoblarning ko'pligini ko'rib, benihoya hayratga tushishdi. Qolaversa, ular o'quv zalida bolalar ensiklopediyalarini birgalikda o'qib, tahlil qilishdi.

Sayohat yakunida o'quvchilarning har biri kutubxonaga a'zo bo'lib, a'zolik guvohnomasini faxr va quvonch bilan qabul qilib oldilar.

Barfiya ASATOVA,
Buxoro shahridagi 24-umumta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

OLTINGA TENG VAQTNI qanday o'tkazyapsiz?

75 yoshni qarshilab, umri davomida minglab shogirdlarni tarbiyalab, voyaga yetkazgan kekse momom aytadilar:
«Bunday olib qarasaq, umr sen yozib turgan qo'lingdagi
ruchka siyohiga o'xshaydi.

Biz qilayotgan savob va gunoh ishlar hayot zarvaraqilariga qoralanadi. Bu yo'lda ba'zi xatolarga yo'l qo'yamiz. Eng asosiysi, siyohni befoyda va keraksiz narsalarga sarflamasak bo'lgani. Bizga in'om etilgan umri havoga sovrish eng katta yo'qotishdir. Shuning uchun bolam, imkon boricha, oq varaqlarga dog' tushirmaslikka, uni yaxshi xotiralar bilan bezamoqqa astoydil harakat qil, yoshligingni bu damlari oltindan ham qimmat. Vaqtning ilm olishga, bilim egallashga sarfla. Zotan, Navoiy hazratlari aytganlaridek: «Bu dunyoda ilmlar bisyor, lekin ani egallash uchun umrlar ozlik qiladur»...

Momomning shu so'zlarini xotirandan o'tkazar ekanman, ba'zi tengdoshlarimdan xafa bo'lib ketaman. Taassufki, ayrimlar yuqoridagi so'zlariga ko'pam amal qilavermaydi. Doimiy ravishda o'qituvchilardan dakkai eshitib, yuradigan ba'zi tengdoshlarim uy vazifasini o'z vaqtda bajarmaydi, lekin bahona tayyor. Afsuski, darsimizning ko'p vaqti ana shu kabi o'quvchilarga tanbeh berish bilan o'tib ketadi. Bilmadim, bunday o'quvchilar maktabga nima uchun kelishyapti ekan? Ochig'ini aytganda, ular, dars tayyorlash o'rniga televizioning oldidan beri kelishmaydi. Buni tanaffus paytida bir-birlari bilan kecha ko'rgan serialini muhokama qilib o'tirishlaridan bilish mumkin.

Bugun texnologiyalar asrida yashayapmiz. Hozir qaysi bir uyga kirmaylik, ko'pchilikning xonadonida zamonaviy televizorlarga ko'zimiz

tushadi. Ayni vaqtda, oynayi jahon orqali berilayotgan o'ta nochor, tomoshabinlarga estetik zavq bermaydigan sayoz va bachkana ko'rsatuvlar, tiyiqsiz va tarbiyasizlik qamragan kulgili dasturlar, milliy-ligimizdan yiroq seriallar o'smirlarni asosiy maqsadlaridan chalg'itmoqda, deb o'ylayman.

Biz kabi yoshlarning asosiy kuni maktabda ta'lim olish bilan o'tadi. Bundan tashqari, fanlardan qo'shimcha mashg'ulotlarga borish, ovqatlanish, dam olishlarni ham hisoblasak, o'z ustimizda ishlashga juda kam vaqt qoladi. Endi shu vaqtning qandaydir seriallarni ko'rish bilan o'tkazganimiz qayda-yu, biror foydali yumush bilan mashg'ul bo'lganimiz qayoqda?!



Hayotda qaysi biri bizga ko'proq asqotishi mumkin?

Aziz tengdoshim! Bizga yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda oltinga teng vaqtimizni ilm olishga sarf etaylik. Har bir kunimiz taassurotlarga boy o'tishi uchun ko'proq kitob mutolaa qilaylik. Biz sog'lom fikrlaydigan, aqli raso, sobitqadam, tafakkuri keng, elimizga munosib vorislar bo'lib yetishmog'imiz kerak.

Dilshodbek RAHMATULLAYEV,
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog'
tumanidagi 13-umumta'lim
maktabining 10-sinf o'quvchisi

O'QUVCHI FANLARNI YOMON O'ZLASHTIRMOQDA BUNGA sabab...



Yoqutoy NIYOZMUHAMMEDOVA, poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 268-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Kunlarning birida yosh Tomas Edison maktabdan uyga keladi-da, onasiga o'qituvchisi berib yuborgan xatni tutqazadi. Xatni o'qib tugatgach, ona birdaniga ho'ngrab yuboradi va ovoz chiqarib o'qiy boshlaydi: «Sizning o'g'lingiz – daho. Bizning maktab uning uchun juda kichkina qilib, unga biror tuzukroq bilim bera oladigan o'qituvchi ham yo'q, maktabimizda. Yaxshisi, unga o'zingiz ta'lim bering».

Onasi dunyodan o'tib ketgandan keyin ko'p yillar o'tgach, Tomas Edison eski xat-qog'ozlar orasidan o'sha qog'ozni topib oladi. Unda quyidagilar yozilgan edi: «O'g'lingiz – aqli zaif bola. Biz uni boshqa o'quvchilarga qo'shib ortiq o'qita olmaymiz. Shuning uchun uni uyda mustaqil o'qitishingizni tavsiya etamiz».

Ana shu «aqli zaif» Tomas Edison keyinchalik o'z asrining eng mashhur kishisiga aylandi. Ilk lam-pochkani u ixtiro qildi.

Ba'zida maktab o'qituvchilari bilan ota-onalar o'rtasida munozara bo'lib qoladi: bolamizning o'zlashtirishi durust emas, yaxshiroq o'qitsanglar bo'lmaydimi? Tarbiyasiga qarasangiz yaxshi bo'lardi, deganga o'xshash. Qiziq'i, xuddi shu savolni ota-ona o'qituvchiga, o'qituvchi esa ota-onaga beradi. Vaholanki, bu borada qars ikki qo'ldan chiqishi kerak deb o'ylayman.

Qariyb, 30 yil maktabda yosh avlodga saboq berdim. Hozir 2-sinfga rahbarlik qilaman. Sinfimizda 19 nafar qiz va 17 nafar o'g'il bola o'qiydi. Shulardan 3 nafari darslarni qiyin o'zlashtiradigan bolalar. Vaqtimni eng ko'p «o'g'irlaydigan»lar ham shular: oddiy diktantni sinf o'quvchilaridan bir marta olsam, bu 3 nafar boladan yana qayta olishga harakat qilaman. Ota-onasiga tez-tez qo'ng'iroq qilib, farzandlari bilan shug'ullanishga vaqt ajratishini alohida iltimos qilaman. Darsdan bezib qolmasligi uchun yengilroq topshiriqlar berib, ozgina harakati uchun yuqoriroq baho bilan rag'batlantiraman. Lekin bu ishlarning o'zi qiyin o'zlashtiradigan bolani «qulog'idan tortib» yaxshi o'zlashtiradigan holatga keltirish uchun kamlik qiladi.

Maktabda o'qituvchining ishi kam emas. U 30-35 nafar bola bilan bir vaqtning o'zida shug'ullanishi kerak. Yangi mavzuni o'tish, daftar tekshirish, uy vazifasini tushuntirish, yana

orada tarbiyaviy mashg'ulot o'tkazguncha ustozning soati adog'iga yetadi. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 30-moddasida: «Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgar ekanligi» belgilab qo'yilgan. Shunday ekan, farzandning ta'lim-tarbiyasi koptok qilib o'ynaladigan narsa emas, balki har ikki tomon jiddiy yondashadigan, kuch-quvvatni ayamaydigan muqaddas ishdir. Hatto, Hadisi shariflarda ham: «Ota-onaning farzandiga bera oladigan eng yaxshi narsasi bu go'zal tarbiyadir», deyiladi.



Bola – gul misoli. Agar oila a'zolari uning uy vazifalarini bajarishda ko'maklashmasa, maktabda, o'rtoqlari orasida qanday yangiliklar bo'layotgani, kimlar bilan do'stlashayotgani, umuman, qanday muhitda yashab nafas olayotganidan xabardor bo'lib turmasa, ko'ngliga qo'l suqmasa, bola o'zini atrofdagilar uchun begonadek his qila boshlaydi. Bolalar oila va jamiyatda o'z o'rnini topa olmayotganidan qiyinaladi. Shunday ekan, farzandlarimiz bilan ko'proq muloqot qilaylik, maktab yumushlarida yaqindan yordam beraylik – bu xatti-harakatlarimiz ertaga, albatta, meva berajak.

Darvoqe,
hikoyamizning boshidagi voqeaga
qaytsak. Tomas Edison yillar davomida uning uchun
sir bo'lib yotgan xatni o'qigandan keyin bir necha soat o'ziga
kelolmadi. So'ng o'z kundaligiga quyidagi so'zlarni bitib qo'ydi:
«Tomas Alva Edison aqli zaif, nochor bola edi. O'zining
qahramon onasi tufayli u o'z asrining yetuk
insonlaridan biriga aylandi.»

Gulsevar do'stlarimizga qish-qirovli kunlarda xonaki gullarni qanday parvarish qilish kerakligi haqida suhbatlashamiz.

GULLARGA HAM MEHR KERAK

Kech kuzda, sovuq tushishidan oldin xona gullarining tagini yumshatib, tuprog'ini organik o'g'itga boy tuproqqa almashtirib, unga suv quyib, ikki kun ochiq havoga qo'yiladi. Gullar yaxshi nafas olishi uchun barglarining changi tez-tez artib turiladi. Barglarning chang va kirlari oson ketishi uchun suvga yashil sovun solib eritiladi. So'ng shu suyuqlikka botirib olingan yumshoq mato bilan barglar artiladi. Barglar quriguncha kutib, keyin ichkariga olib kiriladi. Gul turgan xona yorug' va iliq haroratda bo'lishi lozim. Bir kunda bir marta, qishda bo'lsa ham xonani shamollatib turish shart. Qish mavsumida tuvakdagi gullar sovuq havo kiradigan darchalar yonidan olib qo'yiladi. Gullar har xil bo'ladi. Ular kam suv ichadigan (kaktus, fiktus, geran, aloe, dollar gul, agava, dekobrist) va ko'p suv ichadigan (koreys atirguli, yong'oqbar, qamishgul va boshqalar)

bo'lishi bilan ham farq qiladi. Ko'p suv ichadigan gullarga asosan ertalab yoki kunduzi suv quyiladi. Kam suv ichadigan gullarga bir haftada bir marta quyiladi. Qish mavsumida ko'pchilik gullarga kechqurun suv quyilsa ildizlari muzlab, qurib qolishi mumkin. Gulni yuzaki parvarish qilish yaramaydi. Unga ham mehr, e'tibor zarur. Ular bilan hatto suhbatlashish mumkin. Shundagina u gurkirab o'sadi.

Toshkent, Farg'ona, Surxondaryoda xona o'simliklari ko'pligi jihatdan 1-o'rinda turadi.

Sokina KARIMOVA,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l
tumanidagi 50-umumta'lim
maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi

BUVIJONGA YORDAM BERDIM, LEKIN...

Bir kuni dugonam Dilnoza meni do'konga birga borib kelishimizni iltimos qildi. Men oyimdan ruxsat so'raganimda, ular: «Mayli, o'rtog'ing bilan tezda qaytgin», deb tayinladilar.

Men «xo'p» deb dugonam bilan birga ketdim. Do'kon yo'lining narigi betida bo'lgani uchun biroz ushlanib qoldik. Kerakli narsalarni xarid qilgach, qo'lidagi og'ir yuk bilan zo'rg'a odimlayotgan qari buviga ko'zimiz tushdi. U: «Menga yordam beringlar, mana shu narsalarni uyimgacha eltib bering», dedi. Shu payt oyimning gaplari esimga tushdi va men yo'q demoqchi bo'ldim-ur, lekin buviga rahmim keldi. Dilnoza ikkimiz keksa onaxonning yukini qo'ldan oldik. Ammo ularning uyi ancha olisda ekan, buning ustiga biz tez-tez yurib ketsak, buvi bizga sekinroq yurishni, bizga yeta olmayotganini aytdi. Bu orada qorong'u tushib qoldi. Onaxonni uyigacha kuzatdug-u, ortimizga qaytdik. Uyg'a yaqinlashganimda, ham Dilnozaning onasiga, ham oyimning xavotirli yuzlariga ko'zimiz tushdi. Ular bizni qidirib yurishgan ekan. Bizni ko'rgach, ularning chehrasi yorishdi. «Qayerda yuribsizlar?» degan savolga ikkalamiz ham bo'lgan voqeani aytib berdik. Keyin oyim bilan uyg'a kirdik. Shunda ular hozir hech kimga ishonch yo'qligini, yomon odamlar aynan shunaqa vaziyatlardan foydalanishini, ruxsatsiz ketib qolganimdan qattiq xavotir olganliklarini aytib berdilar. Shundan keyin men ruxsatsiz hech qanday ish qilmaslik kerakligini angladim.

Madina TURSUNBOYEVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi
59-IDUMning 4-«F» sinf o'quvchisi

Aziz o'quvchilar! Xabaringiz bor «Obuna - 2019» mavsumida «Eng faol maktab», «Eng faol sinf» nominatsiyalari bo'yicha g'oliblar aniqlangan edi. «Eng faol maktab» nominatsiyasida Farg'ona viloyatining Beshariq tumanidagi 44-umumta'lim maktabi jamoasi ham borligi quvonarlidir. Yaqinda muxbirimiz Farg'ona viloyatida safarda bo'ldi. Tumandagi 7-, 26-, 29-, 40-umumta'lim maktablaridagi iqtidorli yoshlar bilan dildan suhbatlashdi.

BESHARIQLIK O'QUVCHILAR - DOIM BESHGA O'QUVCHILAR

SAFARDA HAMROH YAXSHI

Siz yaxshi bilasiz, oltin vodiya Qamchiq dovoni orqali ko'tarilib boriladi. Taxminan 5-6 soatlik safar davomida, albatta, kishiga hamroh bo'lgani yaxshi-da.



Men ham yo'lda buvisi bilan safarga otlangan bolakay bilan yaqindan tanishib oldim. Unga maktabdagi o'qishlari, nimalarga qiziqishi, ustozlari haqidagi savollar bilan murojaat qildim.

– Ustozimiz Mohira Hayitmatova rahbarlik qilayotgan sinfimuz juda ahil, – deydi Beshariq tumanidagi 7-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi Samandar Nabijonov. – Badiiy kitoblar o'qishni yaxshi ko'raman, yana ingliz tili darsini ham. Yaqinda Daniyel Defoning «Robinzon Kruzo» asarini o'qib chiqdim. Ushbu asar menda juda katta taassurot qoldirdi. Uni o'qib, inson hayotda irodali bo'lishi,

ko'zlagan maqsadiga yetishi uchun doimo olg'a intilishi kerakligini angladim. Shuningdek, adabiyot, rasm, matematika, texnologiya fanlarini ham yaxshi ko'raman. «Tong yulduzi» gazetasi esa mening eng yaqin hamrohim. Bobojonim va buvijonim: «Qani endi biz ham yosharib qolsak, sen bilan maktabga borsak. Shunday tinch zamonda barcha sharoitlar yaratilgan bilim maskanlarida tahsil olsak», deyдилar. Dadam bilan oyim esa men va 3-sinfda o'qiyotgan singlim Dilbari a'lo baholarga o'qishimiz uchun barcha sharoitlarni yaratib berganlar.

OBUNADA ENG FAOL

Oppoq qor bilan qoplangan dovondan oshib, Beshariq tumani Xalq ta'limi bo'limiga ham yetib keldik.



Boshqarma boshlig'i Qanoat Ismatullayeva, o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash sho'ba mudiri Farhod Qodirov boshchiligidagi «Eng faol maktab» nominatsiyasida g'olib bo'lgan

44-umumta'lim maktabi tomon yo'l oldik. O'quvchilar jam bo'lgan faollar zalida bolalar qalbida mutolaaga havas uyg'otgan maktab rahbari Shahlo Roziqova hamda faol targ'ibotchi, biror o'quvchi she'r yoki maqola yozsa, darrov tahririyatimizga maktub yo'llaydigan ustoz Nargiza Yoqubovaga tashakkurnoma va esdalik sovg'alari topshirildi. O'quvchilar bilan xayrlashayotgan chog'imizda, 4-sinf o'quvchisi Zahro Rustamova yonimizga keldi-da, «Opa, yaqinda maqolam «Tong yulduzi» gazetasida chiqibdi, nasib bo'lsa, bu yil gazetada e'lon qilingan tanlovlarda qatnashib, g'olib bo'lishga harakat qilaman», deya ko'nglimizni tog'dek ko'tardi.

MOHIR SOZANDA BO'LAMAN

Shahriyor Komiljonov – Beshariq tumanidagi 29-umumta'lim maktabining 9-sinfida o'qiydi. U 8-Bolalar musiqa va san'at maktabida ustozlari Nuriddin Jo'rayevdan rubob chalish sirlarini qunt bilan o'rganyapti.



Mana besh yildirki, yosh iqtidor egasi «Nasri segoh» «Nasimi ko'ksor», «Ey, gul» kabi kuylarni maromiga yetkazib chalishni o'rganib oldi. Qo'shiq kuylashni yaxshi ko'radigan sinfdoshi Murodjon, 8-«B» sinfidagi doirani gumburlatib chaladigan Ahadjon bilan maktab va tuman miqyosida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda.

– Musiqa – jon-u dilim, – deydi Shahriyor. – Bu sehrlil olamga bir bor qadam qo'yan inson undan sira ko'ngil uzolmaydi. Men ham bolaligidan rubob soziga mehr qo'yanman. Sultonali Rahmatov, Farhod Saidov kabi bastakor va sozandalarga juda havasim keladi. Katta bo'lsam, men ham xuddi ularday yetuk san'atkor bo'lishni istayman.

INGLIZ TILINI PUXTA O'RGANYAPMIZ»

Tumandagi 40-umumta'lim maktabiga tashrif buyurganimizda, eshigi qiya ochilib turgan xonadan ingliz tilida burro-burro so'zlayotgan 6-«B» sinfining a'lochilari o'quvchilarni ovozi e'tiborimizni tortdi.

Tanaffus bo'lgach, ularni ham suhbatga tortdik:

– Ingliz tili fanini juda yaxshi ko'ramiz, – deydi a'lochilardan biri Ruxshona Umaraliyeva. – Ustozimiz Oliya Uzoqova bu fanni turli qiziqarli o'yinlar yordamida o'rgatishga harakat qiladilar. Shu bois, darslarda hamisha faol qatnashamiz. Maktabimiz yutuqlari haqida «Tong yulduzi» gazetasida maqolalar berilsa, barchamiz quvonib ketamiz.



JASURBEKNING IXTIROSI

29-umumta'lim maktabining 4-«V» sinf o'quvchisi Jasurbek Jamoliddinov darslarda savollarni tanlash imkonini beradigan ajoyib qurilma ixtiro qilibdi. Ushbu moslama tokdan quvvat olgach, soat millari bo'ylab aylanadi va savollardan birining ro'parasida to'xtaydi. Bu esa o'quvchining savolini adolatli tanlashiga imkon beradi. Jasurbekka qurilmani yasashda 8-«V» sinfda o'qiydigan opasi Marjona yaqindan ko'maklashibdi. Maktab rahbari Jahongir Madaminov bu ixtirodan xursand bo'lib, o'qituvchilarga undan dars mashg'ulotlarida foydalanishni tavsiya etdi.

Ushbu safarimiz chog'ida Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi Qashqar, Yangiqo'rg'on, Rapqon, Shaytonko'l, Oqtovuq qishloqlari o'quvchilarining bolalar nashrlariga ixlosi juda yuqori ekanligiga yana bir bor amin bo'ldik.



Nodira NAZAROVA



GYOTE NOMIDAGI MAKTAB

- O'quvchilar, nemis yozuvchisi va mutaffakiri - Iogann Volfgang Gyote haqida nimalarni bilasiz? Keling, ushbu adibning hayot yo'li haqida qisqacha to'xtalamiz.

har hafta yakunida darslarni yaxshi o'zlashtirayotgan o'quvchilarga yulduzcha berar va yil oxirida ko'p yulduzcha yig'gan o'quvchi faxriy yorliq bilan taqdirlanar ekan.

Aziz o'quvchilar, nemis tilini chuqur o'rganishni istaysizmi? Unda ushbu ta'lim

Gyote 1749-yil 28-avgustda Germaniyaning Frankfurt-Mayn shahrida tavallud topgan. U yangi davr nemis adabiyotining asoschisi hisoblanadi. Gyote sharq she'riyatini yuksak qadrlaydigan ijodkorlardan biri edi. Joriy yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Germaniyaga kutilayotgan rasmiy tashrifi arafasida maktabimizga Iogann Volfgang Gyote nomi berildi, - deya darsni boshladi poytax-

timizning Mirobod tumanidagi 60-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 3-«J» sinf rahbari Natalya Pudovchenko. - Bu xabardan juda mamnunmiz, to'g'rimi, bolajonlar?

- Men nemis tilini o'rganishga juda qiziqaman. Ustozimiz Nodira opa Haydarovna har bir darsni qiziqarli tarzda o'tadilar.

Maktabimizda ko'plab tadbirlar o'kaziladi. Masalan, yaqinda rus, nemis xalqlarining milliy urf-odatlarini aks

etgan ijodiy kecha bo'lib o'tdi. Unda sinfdoshlarim bilan rus va nemis xalq ertaklari asosida sahna ko'rinishi tayyorladik. Bundan tashqari, ilm maskanimizda turli to'garaklar tashkil etilgan. Men darsdan so'ng shaxmat to'garagiga qatnashaman.

Yana badiiy kitoblar o'qishni yaxshi ko'raman, yaqinda M.Y. Lermontovning «Borodino» she'r va ertaklari to'plamini

o'qib chiqdim, - deydi Diyorbek Hakimov.

Ha aytganday, Diyorbekning aytishicha, ustoz

maskanida tahsil olishingiz mumkin.

Nigora ABDUNAZAROVA



Lesson 3

INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ

LEARN THE PROVERBS


Read the proverbs and match suitable equivalents.

1 An apple a day keeps the doctor away.	A Sog'lik boylikdan afzal.
2 Crying over split milk, it is no use.	B Sog'lom tanda sog' aql.
3 Healthy mind in a healthy body.	C Bilim kuchdir.
4 Healthy is above wealth.	D Befoyda narsaga achinmoqning foydasi yo'q.
5 Knowledge is power.	E Kuniga bittadan olma yegan odam shifokorga bormaydi.
6 Once bitten twice shy.	F Og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi.

1- E, 2-..., 3-..., 4-..., 5-..., 6-...

WHO CAN HELP ME?

Painter: Sumbula MELIMURODOVA



How many mistakes can you guess?

1. I learn english since twoo weeks. -
2. His favourite subject is meth -
3. Every day I went to school with my friend's. -
4. My friend fell ill so that he missed so much lessons. -
5. Hi's favorite subject is math. -
6. Womens like to cook delirious meals in holiday for their family. -


Ma'mura G'ULOMOVA

ENGLISH RIDDLES



What gets wetter as it dries?

Which month has 28 days?



What has a neck but no head?

EXTREME ADJECTIVES

Replace the underlined words in the sentences below with extreme adjectives in the box.

Brilliant, fascinating, awful, exhausted, tiny, boiling, impossible, delicious, furious.

1. Doston is very tired. He did not sleep well.
2. Can I open the window? It is very hot in here.
3. My teacher just called. He is very angry.
4. I find phrasal verbs very difficult to remember.
5. The holiday was very good, but the weather was very bad.
6. How you can live in this room. It is very small.
7. I find history very interesting.
8. Did you cook this? It is very tasty.

Muhammadsharif FAYZULLAYEV

A KIND GIRAFFE

Full fill the gaps with correct answers.

Laughed at, ran away, out of, stopped to

One day, all animals of the forest ... the giraffe. They said « Your neck and legs are very,very long and clumsy. «The giraffe was quite sad and he.... While he was runnig, he heard a strange voice. He ...find it. He sought, sought and found a pit near there. There was a little rabbit in the pit. She was trying to get free and she was yelling.

Then the giraffe pushed his neck into the pit. He took the rabbit ...there. He saved her. After that nobody laughed at the giraffe. He was very happy!


Dilnoza AKROMOVA, the pupil of school №12 in Qushrabot district Samarkand region



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

Ulug' sarkarda bobomiz, buyuk bunyodkor, ilm-fan homiysi, Sohibqiron Amir Temur haqida o'nlab kitoblar turli tillarda nashr etilgan. Adib To'lqin Hayit esa siz bolajonlarga atab «Buyuk salohiyat sohibi» nomli kitobini yozdi. Rassom Oy-Zoda Jumaniyoz hikoyalarga mos chiroyli rasmlar chizib, kitobni sizga manzur bo'lishiga harakat qilgan. Bolalar uchun atalgan bu hikoyalar Sizni bobomizning bolalik yillari bilan yaqindan tanishtiradi.

«Qarz» hikoyasini mutolaa qilsangiz, ustoz Mulla Alibek, Shayx Shamsiddin Kulol Temurbekning bir eshitganini o'sha zahoti yodlab olishi, yozishda barchadan ustunligiga tan berganlariga guvoh bo'lasiz. O'z o'rnida,



shogirdning ham ilk ustozini sovg'alar bilan yo'qlab, eslab turishini ham qarz, ham farz ekanini anglaysiz.

«Ming oltinga sotib olingan» hikmat tufayli Temurbekning el dardi bilan yashashga ahd etgani ham tahsinga loyiqdir. Yozuvchi To'lqin Hayitning «Haqparvar», «Elyor dehqon», «Jon azizmi, yo tuproq», «Birinchi g'alaba», «Tilxat» hikoyalari ham Temurbekning olijanob fazilatlarini – sabrilligi, dovyurakligi juda sodda tilda bayon etilgan.

O'ylaymizki, ushbu kitobni bobo va buvijonlar nabiralari, ustozlar o'z o'quvchilari bilan sevib mutolaa qiladi. Kitob sizning javoningizdan, albatta, joy oladi. **Mahmuda VALIYEVA**

KITOBLAR REJA TUZDI

Alining papkasida liq to'la kitob, «Meni ochib o'qir» deb, shay turar har tob. Alining xayolida o'qishdan yo'qdir asar, Kitoblarin ochmaydi, atrofga solmas nazar.

Intiq bo'lib kitoblar rosa holdan toyishdi, Alining odatidan xunob bo'lib qolishdi. Bir yoqadan bosh chiqarib fikrlashishga tushdi, Adabiyot kitobin xayoli ko'kka uchdi.

– O'quvchiga o'xshamas, nega o'qimas kitob? – Ustozlarning savoli hanuz qolar bejavob. Tarix boshladi so'zni: – Ali, katta och ko'zni, Ikki bahoni olib, uyaltirmagin bizni.

Mehnat fani so'z ochdi, ussiz zahrini sochdi: – Ali mehnatkash bola va juda dalkash bola. U qushlarni sevadi, inlar qurib beradi, Qushlarni do'st biladi, uyda mehnat qiladi.

Ingliz tili kelib, so'z boshlar ko'krak kerib: – Meni dunyo sevadi, hamma havas qiladi. Alining ishi xato, u orqada doimo, Ma'naviyat so'z qo'shdi, jumboq javobin yechdi.

– Davomatni tushirmas, yaxshi ishi kam emas, Ali o'rtoqlaridan kitobni hech qizg'onmas. Uning odobin so'zlab, ko'pirtirdi so'zini, Maqtov yoqib Aliga ko'kda ko'rdi o'zini.

Shundan so'ng Alijonning ishlari ham yurishdi, Barcha fanlar jam bo'lib, unga yordam qilishdi.

Nodira QURBONOVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi
27-umumta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

QUSHLAR SALOM AYTISHDI

Qushlar keldi o'lkamga, Fayz-u baraka olib. O'z salomin aytishdi, Menga samodan turib.

Tinglab ular ovozin, Doim zavqqa to'laman. Ko'rib sirli parvozin, Uchishga shay turaman.

Mahliyo ATANAZAROVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
27-umumta'lim maktabining
6-«B» sinf o'quvchisi



OYOQ'ING TOYMASA BO'LGANI

Boshingga, yelkangga qo'nadi, Ko'ksingga boshini qo'yadi. Poyingga tiz cho'kar so'ngra u, El uni yurakdan sevadi.

Oppoq qor yashnatar dilingni, To'shalib yoritar yo'lingni. Shunchalar beozor, xokisor, Yog'ilar maydalab u takror.

Issiqroq-issiqroq o'rangin, O'zingga mahkamroq suyangin. Titrama, bu baxting kulgani, Oyog'ing toymasa bo'lgani!

Nuriniso ATXAMOVA,
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq
tumanidagi 65-umumta'lim
maktabining 6-sinf o'quvchisi

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Aziz bolajonlarim! Ilhomjon va Temur ismli robot haqidagi ertagimizni davom ettiramiz. Esingizda bo'lsa, Ilhomjon degan bola o'zi yasagan mashina-robotga shkaf tepasidagi vazadan konfet olib berishini so'raganda, robot bu vazifani bajarmaydi. Chunki, konfetni olish uchun Ilhomjonning oyisi ruxsat bermagan edi-da.

Bolakay bir hiylani ishlatmoqchi bo'ldi. O'zi va o'rtog'i uchun onasidan konfet so'rab olmoqchi bo'ldi.

Temur oyisining oldiga borib: – Oyijon, og'aynim bilan birga konfet olib yesak maylimi? – deb so'radi.

– Shundaymi? Qaysi og'ayning? – Temur degan do'stim keldi. Nari-gi ko'chada turadi. Hozir chaqiraman, – deya Temurni chaqirdi. – Temur, yudamisan? Ovoz ber!

Shu vaqt eshik ochilib, xonaga robot kirib keldi.

– Men shu yerda-man. Men Temur ismli ro-bot-man. Men kon-fet ye-may-man! Robot-lar kon-fet ye-may-di-lar.

Ilhomjonning oyisi qo'rqib ketdi. Devorni ushlab, hayron bo'lib qoldi.

– Voy o'lay, bu nima? Shaytonmi yoki alvastimi?

Shu ondayoq xonaga bolakayning bobosi, buvisi, dadasi, akasi, opasi yugurib kirishdi. Hamma Temur robotni ko'rib, qotib qolishdi. Temur odam qimirlab, gapirgan sari ular qo'rqib, o'zlarini chetga olishar edi.

– Bu nima? – deb so'radi bobosi.

– Buni qayerdan olding? – so'radi dadasi.

– Ehtiyot bo'l, seni turtib yubor-

masin, – dedi akasi. Ilhomjon gerdayib, robotning yonida qo'rqmasdan turardi.


– Bu mening og'aynim, robot. O'zim yasadim. Ismi – Temur! O'zing aytib beraqol, shundaymi, Temur?

Robot harakatga kelib, gapira boshladi. – Men ro-bot-man!..

Mening is-mim Te-mur!.. Men Il-hom-jon-ning o-g'ay-ni-si-man! Me-ni Il-hom-jon ya-sa-gan! Men Te-mur ro-bot-man!

ILHOMJON VA UNING ROBOT DO'STI

(Sarguzasht ertak)



– Yo, tavba! Temir-tersak ham gapiradimi? – dedi oyisi. – Bu shayton emasmi?!

– Singan o'yinchoqlardan ham robot yasash mumkinmi? Bunda bir sir bor! – dedi dadasi.

– Ilhomjon, chetraq tur, ustingga yiqilib tushmasin! – dedi opasi.

– Robot ovqat yeydimi? – so'radi buvisi.

– Qo'rqmanglar. Bu temir odamni o'zim yasadim! Robot meniki! U men bilan o'ynaydi. Mana, o'zi aytsin.

Shundaymi, Temur?

– Men Il-hom-jon bi-lan o'y-nay-man. Men Il-hom-jon-ning o-g'ay-ni-si-man! – deb qayta-qayta takrorlardi robot.

– Bolamiz katta usta bo'lib qolibdi-ku! Ofarini! Buni olimlarga ko'rsatish kerak, – dedi dadasi.

Shu kuni kechasi ancha vaqtgacha robot haqida gaplashildi. Uni Ilhomjon xonasida qoldirishga kelishildi. Buning evaziga Ilhomjon to'polon qilmasligi, vaqtida uxlab, ertalab uyg'ongan-da, darrov turib yuvinishi, ovqatni qoldirmasdan yeyishi lozim bo'ldi.

Bolakay hamma shartlarga rozi bo'ldi. Ammo, hozir bitta konfet berishlarini so'radi.

– Ilhomjonga konfet berilsin, – deyishdi uydagilar.

Oyisi shokoladli konfet olib berdi. Ilhomjon uni og'ziga solib, mazza qilib yedi. So'ng uxlash uchun karavotiga yotdi. Yoniga robot joylashib o'tirdi. Toza charchagan ekan, darrov uxlab qoldi...

(Davomi bor)

Anvar TOJIYEV

JASORATLI O'G'LONLAR



Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 22-umumta'lim maktabida Milliy gvardiya ixtisoslashtirilgan o'quv markazi katta o'qituvchisi, mayor Feruz Latipov hamda o'quv markazi o'quvchisi, serjant Elyor Eshonqulov bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar har bir bola yoshlikdan matonatli, mard va jasur bo'lishi lozimligini, ular yurtning chinakam himoyachilari ekanini ta'kidledi. Shuningdek, «Yoshlar shijoati» to'garagi a'zolari ustozlari boshchiligida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar davlat muzeyiga tashrif buyurdi.



Xorazm

viloyati, Shovot tumanidagi 1-umumta'lim maktabida qator tashkilotlar hamkorligida Vatan himoyachilariga bag'ishlangan tadbiri o'tkazildi. Tadbirda 2-«A» va 3-«A» sinf o'quvchilari barcha yig'ilganlarga sinf rahbarlari Inobat Ishchanova va Saida Jumaniyozova rahbarligida tayyorlagan konsert dasturini namoyish etdi. Harbiylarning epchillik bilan bajargan harbiy mashqlari o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.



Vatanni sevish,

yurt ravnaqi yo'lida halol mehnat qilish, a'lo baholarga o'qish – o'zini qahramonliklarga tayyorlab borish demak.

Sohibqiron Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek Movarounnahrda hukmronlik qilgan 40 yil davomida mamlakatda tinchlik, osoyishtalik barqaror bo'lgani sababli yurtda ilm-fan, madaniyat yuksak taraqqiy etgan. Bunyodkorlikka katta e'tibor qaratilib, ko'hna zaminimiz gullab-yashnagan. Aksincha, urush bo'layotgan yurtlarda rivojlanish ham bo'lmaydi. Shu sabab xalqimiz Vatan himoyachilarini doimo qadrlaydi.

Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 206-umumta'lim maktabining 3-«A» sinfida ustoz Dilorm Boymatova hamda tumanidagi 212-umumta'lim maktabining 3-«G» sinfida ustoz Shahlo Ataboyeva va 3-«A» sinf rahbari Hilola Normatova tashkilashtirgan «Mard o'g'lonlar» mavzusidagi tadbirda ham jajji bolakaylar qalbiga mardlik, jasurlik, Vatanni sevish kabi ezgu fazilatlar chuqur singdirildi. Bolajonlar ushbu tadbirdan olam-olam taassurot oldilar.



Andijon

viloyatining Marhamat tumanidagi 26-umumta'lim maktabida «O'zbekimning mard o'g'lonlari» nomli bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

Uchrashuvga harbiy qism boshlig'i Shahobiddin Usmonov hamda serjant Abdurashid Rahimov boshchiligida harbiylar tashrif buyurdi. So'zga chiqqanlar o'quvchilarga ona Vatanimizni yovlardan himoya qilish har bir fuqaroning muqaddas burchi ekanligini alohida ta'kidlab, «Ona yurtning omon bo'lsa, rang-u ro'ying somon bo'lmas» kabi hikmatlarda burchga sadoqatli bo'lishga da'vat etilishini hayotiy misollar yordamida tushuntirdilar. Buning uchun yigit kishi bolalikdan jasur va mard o'g'lon bo'lishi, qiyinchiliklarni matonat bilan yengib o'tishi zarurligini aytib o'tdilar. Shuningdek, Oltinko'l tumanidagi 16-umumta'lim maktabida ham «Kim yurtiga sodiq bo'lsa, mendurman o'sha» mavzusida bayram tadbirlari bo'lib o'tdi.



TINCHLIK BO'LSIN DUNYODA!

Behruz, Kozimjon va Shavkatjon sportning taekvando turi bilan shug'ullanishadi. Ular tarbiyalanayotgan poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 11-maktabgacha ta'lim muassasasida turli sport to'garaklari tashkil qilingan. Uning faol a'zolari esa bog'chalarida o'tkazilayotgan tadbir-u, bayramlarda o'z chiqishlari bilan barchani lol qoldirishadi. Yaqindagina 6-guruh tarbiyalanuvchilari tarbiyachisi opalari Muhabbat Dehqonova boshchiligida tayyorlagan bayram dasturida o'z orzularini amalga oshiribdi. Ha-da, axir bolalikda harbiy kiyim kiyishni istamagan bola bormi?! Xullas, hatto qizlar ham saf tortib «Tinchlik bo'lsin!» deya qo'shiq yulashganida, bo'lajak yosh vatanparvarlarni ko'rib quvondik. «Vatan – muqaddas!» deya shiorlarini ayrgan bolalar bu tuyg'uni faqat murg'ak qalbda his qilmay, amalda ko'rsatishga intilishdi. «Kim chaqqon, kim epchil?», «Zukkolik o'yini» kabi musobaqalarda E'zoza, Gulxumor, Yasmina kabi qizaloqlar sportchi o'g'il bolalardan qolishishmadi. Zukko bolajonlarning harakatlarini ko'rgan mudirasi Shohida opa Dadaboyeva esa ularni bag'riga olib doimo Vatanga sodiq farzand bo'lishlariga tilak bildirdi.

Feruza ALIMJONOVA,
poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 22-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi



Barcha

bolalar yoshlikdan qahramon bo'lishga intiladi. Bu xususiyat har bir xalq, har bir inson tabiatida bo'lib, u xoh o'g'il, xoh qiz bo'lsin buyuk ishlarni amalga oshirishga intiladi. Hatto, ko'pchilik ota-onalar farzandim ulg'ayib, jasoratli yigit bo'lsin, deya dilbandiga Qahramon, Jasur, Botir, Qilich, Temur va Lochin kabi ismlarni qo'yishgan.

Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 236-umumta'lim maktabining 2-«B» sinf rahbari Dilfuza Sulaymonova tashkilashtirgan tadbirda jajji bolakaylarga qahramonlik, Vatan tuyg'usi, muqaddas burch haqida tushunchalar berildi – Men «Desantchi» she'rini yod oldim, – deydi Bobur Bahodirov. – Desantchi bo'lish uchun epchil, dovyurak bo'lish kerakligini angladim. Kelajakda Vatanimning har bir qarich yerini muqaddas bilib, uning haqiqiy himoyachisi bo'laman.

Tadbirda o'quvchilar tomonidan qo'shiq va raqslar ijro etildi.

O'z muxbirlarimiz

VATANPARVAR KICHKINTOYLAR

Bolajonlarimiz MTMda o'tadigan bayramlarni juda yaxshi ko'radi. Shu bois ta'lim muassasamizda ko'plab shodiyonalar tashkillashtiramiz. Jumladan, «Harbiy vatanparvarlik» oyligi davomida ham murg'ak qalblarda vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otishga harakat qildik.

Oy davomida har bir guruhda turli qiziqarli mashg'ulotlar tashkillashtirildi. Tadbirlarga tarbiyalanuvchilarning ota-onalari, buva-buvilari ham tashrif buyurishdi. Maroqli o'tgan mashg'ulotlarimizda kichkintoylar she'rlar aytishdi. Ona Vatan, qudratli Armiyamiz, mard o'g'lonlar haqida qo'shiqlar kuylashdi. Sho'x kuylarga raqsga tushishdi. Bolakaylarning turli sport o'yinlariga oid badiiy chiqishlari ishtirokchilar olqishiga sazovor bo'ldi. Bolajonlar o'z qo'llari bilan yasagan bayram sovg'alarini otalari, bobolari va akalariga taqdim etdi.



Nodira NIYAZOVA,

Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 15-maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi

Pazanda qizga! TVOROGLI TOBLAMA



Aziz qizlarjon! Tvorogni inson organizmiga qanchalik foydasi borligidan xabaringiz bor, albatta. Bugun sizlarga ana shu foydali mahsulotdan yana bir pishiriq tayyorlashni o'rgatamiz.

Buning uchun: 700 gramm tvorog, 4 dona tuxum, 7 oshqoshiq shakar, 2 oshqoshiq smetana, 2 oshqoshiq kartoshka kraxmali kerak bo'ladi. Ish avvalida chuqurroq idishga tvorogni, 2 dona tuxum, shakar va kraxmalni solib, mikserda sekin-asta aralashiramiz.

Alohida idishda qolgan ikkita tuxum oqini ikki oshqoshiq shakar bilan qattiq ko'pik holiga kelgunicha aralashiramiz va bu masalliqni tvorogli aralashma ustiga solib, yana bir xil ko'rinishga kelguncha mikser bilan aralashiramiz. Gaz duxovkasini 180 haroratda qiziridib, o'rta qolipni yog'laymiz va masallig'imizni bir xil ko'rinishda tekislab solamiz. Toblama 20-25 daqiqada tayyor bo'ladi. Uni sovigach, likopchalarga kesib solishingiz mumkin.



YOQIMLI ISHTAHA!

NARGIZA tayyorladi

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

TOPQIRLIK MASHQI

Quyida ta'riflari bayon etilgan nomlar «Qora» so'zi bilan boshlanadi. Ularni to'liq atamasini qatorlar bo'yicha yozish bilan mashqni hal eting.

1. San'atkor Abduraim Abduvahobovni elga tanitgan kino qahramoni.
2. Ko'z pardasidagi a'zo.
3. Tanani o'tob nurida toblash.
4. Sirti qalin to'rlangan, tusi och yashil, eti shirin va xushbo'y handalak turi.
5. Qarg'asimonlar oilasiga mansub parranda, cho'l burguti.
6. Ba'zi turlari ziyinat uchun, ba'zi turlari sershira, nordon mevasi uchun o'stiriladigan xushbo'y buta o'simlik.
7. Shoxli, yirik chorva hayvoni.
8. Neftdan benzin, kerosin va gazolin ajratib olingandan so'ng qolgan quyuc suyuqlik.
9. Xalqimizga mansub «Alpomish» dostoni qahramoni.
10. Qoramtir to'pgulli, yo'g'on poyali giyoh.
11. Qir-adirlarda, g'allazorlarda o'suvchi doni zaharli begona o't.
12. Qo'zidan jingalak yungli mo'yna olinadigan qo'y zoti.

Endi javoblar orqali kataklardagi raqamlar juftini (birinchisi so'z, ikkinchisi harf tartibini anglatadi) harflar bilan almashtirish yo'li bilan topshiriqni hal eting. Bunda ulardan O'zbekistonda yetishtirilgan salt miniladigan yoki aravaga qo'shiladigan ot zotini bilib olasiz.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

1	Q O R A				*	**
2					*	5/5
3					*	4/6
4					*	12/3
5					*	6/6
6					*	10/5
7					*	11/4
8					*	8/7
9					*	3/6
10					*	1/3
11					*	**
12					*	**